TARBIYA FANINI O‘QITISH MASALALARI

Muhammadiyev Abdurashid, Shodiyorov Eldor

Guliston davlat pedagogika instituti talabalari

E-mail: Eldorshodiyorov141@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiya o‘quv fanining asosiy yoritilib, ushbu faning rivojlanish tarixi hamda inson taraqqiyotida qanday ahamiyat kasb etgani, shuningdek tarbiya fani o‘qitilsa jamiyat qanday o‘zgarishi yoxud uning aksi bo‘lganda jamiyat inqorzga yuz tutishi tarixiy manbalar va adabiyotlar izchilligida o‘rganilib, tahlil qilinadi..

Kalit so‘zlar: Tarbiy, ta’lim, avesto, axloq, mutaxassis, oila, jamiyat.

KIRISH

Tarbiya – avlodlararo ijtimoiy-tarixiy va hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiladigan, oila, ta’lim muassasalari, ijtimoiy, siyosiy va boshqa tashkilotlar, OAV va boshqa ta’siri ostida jismonan sog‘lom, ma’nan barkamol insonni shakllantirish va takomillashtirish jarayonini anglatuvchi tushuncha. Tarbiya insonga individual va ijtimoiy, ongli va ongsiz ta’sirlarning yig‘indisini mujassamlashtiradi, yakka kishiga, ma’lum bir jamoaga, xalq yoki millatga qaratilgan bo‘lib, davlat va jamiyat qurilishi hamda rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Turli jamoat tashkilotlari, fan, texnika, adabiyot, san’at, OAV, radio va TV, targ‘ibot-tashviqot ishlari ham ijtimoiy tarbiyaga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Yosh avlodni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, jismoniy chiniqtirish ham tarbiyaga kiradi. Ma’lumki, tarbiyaning asosiy turlari ikkita: oilaviy va ijtimoiy. Oila tarbiyasi oilada ota-onalar, bobo va buvilar, umuman katta yoshli qarindoshlar tomonidan bolalarni tarbiyalashdir. Azaliy o‘zbek udumiga binoan ota-onalar bilan birga bobo-buvilarning tarbiyaviy ta’siri kuchli. Chunki hayotliklarida bobo va buvilar oilaning ma’naviy rahbarlari bo‘lishgan. Amir Temur, temuriylar xonadonida o‘rnatilgan tartibga ko‘ra, shahzodalar tarbiyasi bilan ularning onalari emas, buvilari shug‘ullanishgan. Shahzodalar ko‘krakdan ajratilib, esini tanib, o‘zo‘zini eplay boshlagach, buvilari izmiga o‘tkazilgan. Masalan, Mirzo

Ulug‘bekning onasi Gavharshodbegim bo‘lsada, uning oilaviy tarbiyasi bilan Saroymulkxonim shug‘ullangan. Amir Temurning o‘zi ham farzandlari va nevaralari tarbiyasiga jiddiy ahamiyat berib, doimo nazorat qilib turgan. Oilaviy tartib, ya’ni oila a’zolarining bir-birlariga munosabati, ota-ona va boshqa katta yoshli qarindoshlarining xulq-atvori, madaniy va siyosiy saviyasi, muomala madaniyati, oila daromadi, yashash sharoiti va shu kabi omillar oila tarbiyasining asosidir. Oila qanchalik tartibli, yaxshi xulq-atvorli, a’zolarining o‘zaro munosabatlari samimiy bo‘lsa, oilaviy tarbiya ham shunchalik samarali bo‘ladi.

Tarbiya tizimida asosiy o‘rinlardan birini umumiy ta’lim maktablari egallaydi, chunki, endigina oila ta’sirida bo‘lgan yosh nihol, umumiy ta’lim maktablarining rejalashtirilgan tarbiyaviy ta’sir doirasiga kiradi. O‘sha kundan e’tiboran, murg‘ak qalb faoliyatini jamiyat, millat manfaati tomon burish uchun dastlabki qadam tashlanadi. Umumiy ta’lim maktablarida amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlar jamiyatning boshqa ijtimoiy institutlari, oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlari, mehnat jamoalari, turli jamoat tashkilotlari, madaniy-ma’rifiy muassasalar, uyushmalar amalga oshirayotgan bir butun, tarbiyaviy ta’sir doirasida bo‘lib, bu boradagi maqsadli faoliyatning tarkibiy qismidir. Barkamol shaxs tarbiyasi, uni to‘g‘ri amalga oshirish, ijtimoiy, ma’naviy va madaniy hayotga tayyorlashdan iborat. Tarbiya murakkab jarayon bo‘lishi bilan birga, har bir mamlakat va millat uchun g‘oyat dolzarb masala hisoblanadi. Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan fikrni bejiz aytmagan. Tarbiya asosan ikki negizga – axloq va oqillikka tayanmog‘i lozim: birinchisi – yaxshi fazilatlarni o‘stirsa, ikkinchisi – o‘zgalar illatidan himoya qiladi (A.Shamfar). Tarbiya ajdodlarimiz to‘plagan yaxshi fazilat va xislatlar, qadriyatlar, shuningdek, ular to‘plagan tarixiy ijtimoiy tajriba, barcha bilim va ilmlarni bilish manbaidir. Tarbiya tarbiya beruvchining professional mahoratini ifodalaydi. Shu boisdan, tarbiya mahorat, ba’zan san’at sifatida talqin qilinadi. U insonni mustaqil shaxs bo‘lib kamol topishida hal qiluvchi omil, jamiyat amalga oshirgan tarbiyaviy ishlarning natijasi, deb ham hisoblanadi.

Tarbiya muayyan maqsadga qaratilgan, aniq dastur, reja asosida amalga oshiriladigan ongli amaliy faoliyatdir. Bunday tarbiyaviy ta’sir inson faoliyatini ma’lum bir ijtimoiy guruh, tabaqa, shaxs yoki millat manfaati tomon yo‘naltiradi. Inson shaxsi hamma vaqt ham faqat ongli, rejali tarbiyaviy ta’sirning mahsuli emas. Inson shaxsining kamolotida hech qanday dastursiz, rejasiz, stixiyali tarzda amalga oshiriladigan ta’sirning (do‘stu birodarlar, hamkasblar, qarindosh-urug‘lar suhbati, bozor yoki choyxonadagi gurung yoxud ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan me’moriy yodgorliklar, tabiat manzaralarining ta’siri va boshqalar) ham ahamiyati beqiyosdir. Tarbiyaning ommaviy, guruhiy va shaxsiy shakllari mavjud. Istiqlol tufayli mamlakatimizda ta’lim va tarbiyaga bo‘lgan munosabat o‘zgardi. Mustabid tuzumga xos sinfiy, partiyaviy qarashlarga barham berilib, barkamol avlod, har tomonlama kamol topgan komil insonni, shaxsni tarbiyalashga e’tibor kuchaytirildi. Shu jihatdan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda yosh avlodni ezgu g‘oyalarga sadoqat ruhida tarbiyalash, ajdodlarimiz merosiga tayanish, oila muqaddasligini saqlash, farzandlarimizni yurtparvar va elparvar, yuksak e’tiqodli, odob-axloqli va barkamol etib tarbiyalash barchamizning zimmamizdagi asosiy, mas’uliyatli vazifadir.

Tarbiya – bu insonning xulq- atvori, axloqi va odobini belgilab beruvchi jamiyatdagi ijtimoiy mezon.Inson jamiyatda erkin harakatlanar ekan eng avvalo o‘z xulqi va odobini namoyish etib boradi, bola tug‘ilganida ota onasi tomonidan kelajakda yetuk inson bo ‘lsin, jamiyat foydasi uchun uchun jon kuydirguvchi shaxs bo‘lsin deb jismiga mos ismlar qo‘yishadi hamda o‘z qadiryatlari asnosida tarbiyalab voyaga yetkazadi. Umuman olganda tarbiya inson hayotining uzviy jarayonidir inson dastlab tarbiyani oiladan so ‘ngra jamiyatdan va butun hayoti davomida o‘zlashtirib boraveradi, shunday ekan insonning har bir ko‘rgan kuni hikmat kechirgan voqealari esa xulosa orqali tarbiyadan iboratdir

ASOSIY QISIM

Bugungi kun, dunyo xalqalri o‘z taraqqiy yo‘lini barpo qilar ekan eng avvalo o‘z jonajon farzandlarini ham axloqan tarbiyalamoq shunik bilan birga yaxshi ta’lim bermoq va yaxshi kamol toptirmoq ilinjida barkamol millat poydevorini qurmoqdalar. Bu jarayon

bugun yoxud kecha boshlangan emas, aksincha insoniyat taraqqiy topgan davrdan buyon shakillanmoqda misol uchun tariximizning barcha masalariga birdek guvohlik beradigan shuningdek barcha axloqiy va tarbiyaviy masalarda murojat qiladigan Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”ni olaylik unda shunday takidlangan edi: “Odamlar uchta joyga ko‘proq, borishlari kerak: donolar uyiga, odillar uyiga va muqaddas olovli ibodatxonaga. Donolar uyiga aqlliroq bo‘lish va ixlosu e’tiqodda yanada mustahkam bo‘lmoq, uchun, odillar uyiga ezgulik va yovuzlikni farqlash va o‘zidan yovuzlikni uloqtirish uchun, olovli ibodatxonaga esa o‘zini vujudsiz iblisdan saqlash uchun tez - tez borib turmoq lozimdir”

Shuningdek “Avesto”da axloqiy maqomlar - ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal birligini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu tamoyillar mantiqan bir - birini taqozo etib, imonli bo‘lish, so‘zda ham, amalda ham e’tiqodga sodiqdigini bildiradi. Bu tamoyillarga to‘la amal qilgan kishi Tangri inoyatiga muyassar bo‘lib, porso va jannatiy insondir. “Avesto” da ezgulikning ifoda etuvchi va bevosita dunyoviy ma’no ustivor bo‘lgan so‘zlar ishtirokidagi hikmatlarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

Ta’limiy - axloqiy o’gitlar. Bular mashhur tarixiy shaxslar va murabbiylarning farzandlarga yoxud umuman kishilarga qarata murojaat nasihatlaridir. Bular ikki xil:

O‘zgalar so‘zlariga munosabatni ifodalovchi nasihatlar: “Eshitganlaringga diqqat bilan quloq sol”, “Yovuz va yolg‘onchilar nutqiga quloq solma”, “Boshliqni ulug‘la, uni hurmat qil va so‘zlariga quloq tut”, “Ulug‘ martabali donishmand kishilarni e’zozla, so‘zlariga quloq sol” va boshqalar.

O‘zing aytadigan so‘zga aloqador nasihatlar: “Hech kimga yolg‘on gapirma”, “Rostga ham, yolg‘onga ham qasam ichma”, “Aniq gapir. O‘ylamay so‘ylama”, “O‘tkir so‘zni gapir, so‘z - ezgu nutqdir. Ammo sukut ham bor. Sukut - nutqdan afzal”, “Ikkiyoqlama gapirma”, “O‘zing zarar ko‘rmayin desang, yig‘inlarda yolg‘onchining yonida o‘tirma”, “Shilqim va ezma bo‘lma” kabi.

Ta’limiy - axloqiy xarakterdagi hikmatlarga aylangan umumlashgan xulosalar: “Rost so‘z sendan qoladigan qutlug‘ yodgorliklar”, “Haqgo‘ylik va rostlik Tangri

odatidir”, “Kim yolg‘on so‘zga og‘iz ochsa, baxt qushi undan qochadi”, “Gapiruvchi nodon bo‘lsa ham eshituvchi dono bo’lmog‘i zarur”, “Sukut - eng buyuk odat”, “Ovqatlanish paytida gapirmoq gunohi azimdir” va boshqalar. Bu millon tarix adabiyotlaridan kichkinagina parcha biz buni barchasini tahlil qiladigan bo‘lsak kamida o‘n nashirdan iborat katta kitob shakillatirsa bo‘ladi.

Tarbiya haqida fikrlarlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, Tarbiya - insoniyat tarixining barcha davrlarida muhim o‘ringa ega bo‘lgan jarayon. Mutafakkirlar har doim tarbiya jarayonining mohiyatini, uning maqsadlari va usullarini tadqiq etib kelganlar. Tarbiya masalalari haqidagi fikrlar zamonaviy jamiyatning ta’lim tizimiga ta’sir qilishi va o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Shunday ekan, mutafakkirlarning tarbiya haqidagi qarashlarini o‘rganish zarurati bugungi kunda yanada dolzarblashgan.

Mutafakkirlarning aksariyati tarbiyaning axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qilishi kerakligini ta’kidlashadi. Tarbiya nafaqat ilm olish, balki insonning ruhiy, ma’naviy holatini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi.Shunday mutafakkirlarimizdan biri Ibn Sino, o‘zining falsafiy qarashlarida insonni nafaqat ilm, balki ma’naviy tarbiya orqali to‘liq rivojlanishi zarurligini ta’kidlagan. Uning ta’lim tizimi nafaqat ilm olishni, balki axloqiy fazilatlarni rivojlantirishni ham nazarda tutgan. Ibn Sino insonning o‘z-o‘zini tarbiyalashining muhimligini, uning nafsini boshqarish uchun tarbiya zarurligini ko‘rsatgan va yana o‘zining ta’lim va tarbiya haqidagi fikrlarida insonni ma’naviy rivojlantirishni ilm olish bilan birlashtirgan. U "Nafsni tarbiyalash" g‘oyasini ilgari surgan, ya’ni insonning ruhiy holatini va axloqiy fazilatlarini shakllantirish orqali uning to‘liq rivojlanishiga erishish mumkinligini ta’kidlagan. Ibn Sino, ta’limning nafaqat ilmiy bilimlar, balki axloqiy va ma’naviy tarbiya jarayonlari orqali amalga oshirilishini muhim deb bilgan. Ibn Sino tarbiyani insonning ichki dunyosini shakllantirish, uning ma’naviy o‘sishiga yordam berish va hayotdagi muvozanatni saqlash sifatida ko‘rgan. Ibn Sinoning tarbiyaning axloqiy jihatlari haqidagi qarashlari ayniqsa muhimdir.

Dastlab tarbiya haqida qarashlar va fikrlar, so‘ng esa tarbiaya fanini o‘qitish masalalri yuzaga keldi. Garchand bu jarayon IX-XII-asrlarda shakillangan bo‘lsada, lekin tarbiyani o ‘qitish jarayonlari Jadidchilik harakati bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi.

Jadidchilikning Turkistondagi asoschilaridan biri, o‘zbek teatrchiligining asoschisi va Turkiston jadidlarining ustozi desak mubolag‘a bo‘lmaydigan ulamo Mahmudxo‘ja Behbudiy “Ulamo tarbiyaxonasi maktab va madrasalardur, agarda o‘shal maktab va madrasa muallim va mudarrislari olim bo‘lsa va shogirdlarig‘a ko‘ngli ilan ta’lim bersa, albatta ilm hosil qilur” deya fikr bildiradi. Ya’ni insonning kamolga yetishida nafaqat maktab va madraslarning o‘zi, balki undagi muddarislarning ham yaxshi bilimga ega bo‘lishi, o‘z kasbiga mehr va dars o‘tishga ishtiyoqi bo‘lishi lozimligi haqida aytadi va zamonasining o‘qituvchilarini tanqid qiladi: “Agarda muallimni o‘zi hozirgi aksar maktabdor va mudarrislardek kamhavsala yoinki kamilm bo‘lsa, yoinki ilmi bo‘lub turub, usuli tahsildan xabarsiz bo‘lsa, ani(ng) shogirdlari nodon qolur”

Shuningdek buyuk allomaning zamondoshi va izdoshi bo‘lgan yana bir ulamo Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida tarbiyani o‘qitish haqida shunday fikrlarni izohlaydi:“Bolaning salomatligi va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak,yomon xulqlardan saqlab o‘sturmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan da’voni ustidan berub, katta qilmog‘i lozimdur” shu o‘rinda yana bir ulamoyimizni takidlab o‘tmasak bo‘lmaydi o‘zining tarbiyaviy qarashlari bilan va yuksak ilmparvarligi bilan boshqa jadidlardan ajralib turuvchi jadid Abdurauf Fitrat shunday ta’kidlaydi: Bolalarni fikrlashida “isbot bo‘lishini o‘rgating, ya’ni ularga doim to‘g‘ri, rost ma’lumotlar bering va xotiralarida beasos, botil fikrlarning joy olishiga yo‘l qo‘ymang, aks holda ulg‘ayganlaridan keyin ham ana shu beasos fikrlarga tartib berib noto‘g‘ri muhokama qiladilar natijada xato yo‘llarga kirib qolib zarar ko‘radilar”

O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida shakillangach bu tarixiy izchillikni davom ettirgan holda maktab ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasasalarida tarbiyaviy jarayonlarni fan sifatida o‘qita boshladi va bu fanlarni o‘qitish uchun zarur mutaxassislarni yetishtira boshladi. Bunga yaqqol misol sifatida maktablarda 2000-yillardan boshlab “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, fanlari va O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2001-yil 18-yanvardagi qarori bilan “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” fanlari o‘qitila boshlandi va shu farmon asosida bunga mos mutaxassislik sifatida oliy ta’limda “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” mutaxassislik yo‘nalishi ham faoliyat boshladi.(**Izoh sifatida:** *Ushbu yo ‘nalishda tahsil olib tamomlagan kadirlar darajasiga qarab maktablarda, kollejlarda, oliy talimda qamrab olinadigan “Ododbnoma”, “Vatan tuyg‘usi” va “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” fanlaridan ta’limiy-tarbiyaviy jarayonlarni olib borishgan*)

Bugungi kun nuqtai nazaridan oladigan bo ‘lsak O ‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 06.07.2020-yiladi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqicha bosqich amalyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risdagi” 422-son qaroriga muvofiq Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” hamda “Dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtirgan holda yagona “Tarbiya” fani 1 — 9-sinflarda — 2020/2021 o‘quv yilidan, 10 — 11-sinflarda esa — 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etildi. Bu yo ‘nalish mutaxassislari sifatida oliy ta’lim muassasalarining “Boshlang‘ich ta’lim”, “Tarix” (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha), “Tarix o‘qitish metodikasi”, “Filologiya va tillarni o‘qitish: O‘zbek tili”, “O‘zbek tili va adabiyoti”, “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi”, “Pedagogika va psixologiya”, “Dinshunoslik” va Islomshunoslik (Islom tarixi va manbashunosligi)”, “Psixologiya (Din sotsiopsixologiyasi)” ta’lim yo‘nalishlari bitiruvchilariga umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Tarbiya” fanini o‘qitish huquqi berildi. So‘z o‘rnida shuni takidlab o‘tish joziki umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi “Tarbiya” fani darsligining qariyib 90%i “Milliy g‘oya ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishida tahsil oladigan mutaxasislarning o‘quv rejasidagi mavzularga mos va shuni alohida

takidlab o ‘tish ham kerakki Tarbiyaning asosiy poydevorlari aynan ushbu mutaxassislikda jamlangandir. Misol uchun “Tarbiya” o‘quv fanidagi “Buzg‘unchi g‘oyalar”, “Jaholatga qarshi ma’rifat”, “Mahalla qadiryatlar beshigi” kabi mavzular aynan “Milliy g‘oya ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” ta’lim yo‘nalishi mutaxasislarining asosiy fan obyekti hisoblanadi va bu alohida darslik sifatida (“Milliy g‘oyaning tarixiy nazariyasi”, “Ma’naviyatshunoslik”, “Etnomadaniyat” “Globallashuv” va boshqa bir qator fanlar) ham o‘quv mashg‘ulotlari olib boriladi.

XULOSA

Talim-tarbiya jarayoni ayniqsa tarbiya jarayoni inson hayotidagi eng muhim bosqichlarning asosiysi sanalar ekan uning poydevorini mustahkam qo‘ymoq lozim poydevor deganda ham eng sifatli materiallardan foydalangan holda, bu poydevor sifatida biz eng yetuk mutaxassis o‘qituvghilarni yollamog‘imiz, kerak bo ‘lsa ularni eng yuqorilarga ko‘tarmog‘imiz darkor. Chunki millat bolalarining ham ilmli ham yaxshi xulq va tarbiyali bo‘lishini belgilab berish albatta o‘qituvchilarning zimmasidadir.Yuqorida aytib o‘tilgan fikrlar va ma’lumotlar tasdig‘i sifatida yana shuni qo ‘shimcha qilishimiz mumkinki “Ilmli lekin tarbiyasiz ota-onadan ilimli indon chiqishidan tarbiyasiz inson chiqish ehtimoli yuqoriroq, Tarbiyali ota oanadan esa ham ilmli ham tarbiyali farzandlar yetishib chiqadi”. Zero tarbiyasiz millat boshsiz chavandozga o‘xshaydi yo‘lida davom etaveradi, lekin nima qilayotganini va qay tomonga ketayotganini fahimlay olmaydi va ko‘rolmaydi. Shunday ekan boshsiz chavandoz bo‘lishdan nima naf, millat poydevorini quyguvchilardan uzoqlashmaylik va ularning ilm-u ziyozidan bahramand bo‘lga holda eng yetuk millatni shakillantiraylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Abdirashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy. –Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 142-b.

2.Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. –Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 8-b

3.Абдурауф Ф. Танланган асарлар. В жилд. Илмий рисолалар. –Тошкент, 2010. –196-б.

4.Mahmudova.N. “Avesto” kitobida odob-axloq va ta’lim-tarbiyaga oid qarashlar”. Xorazim: 2024. – 2-3-b.

5.Namozova.M. Sharq mutafakkirlarining tarbiyaga oid qarashlari.-Toshkent: 2025. – 2-b.

INTERNET MANBALARI

6.http://lex.uz//docs/-4885018

7. https://oyina.uz/uz/teahause/2333